

MAMLAKATLARNING IQTISODIY RIVOJLANISHIDA XALQARO KREDITNING TUTGAN O‘RNI

Jo‘raqulova Nasiba Davlatbek qizi

*Toshkent Moliya instituti Moliya fakulteti Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo‘nalishi
2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatlarning rivojlanishi yo‘lida tashqi iqtisodiy aloqalarning, xalqaro kredit tashkilotlarining, xorij investorlarini jalb qilish masalalari, moliyaviy erkinlik va iqtisodiy barqarorlikka erishishda xalqaro kredit siyosatining dolzarbligi, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tashqi qarz mablag‘larining muhimligi hamda investorlarni jalb qilish yo‘llari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy barqarorlik, moliyaviy erkinlik, xalqaro kredit, tashqi qarz, rivojlanish strategiyasi, investitsiya, xorij investorlari, jahon moliya tashkiloti, tadbirkorlikni rivojlantirish.

Introduction

Iqtisodiy va moliyaviy o‘shish, uning barqarorligini ta‘minlash, mamlakatni har jabhada rivojlantirish katta moliyaviy mablag‘, salohiyatli kadrlar va aniq strategiyalarni talab qiladi. Har bir rivojlanayotgan davlat o‘zining taraqqiyot yo‘lida qo‘shni davlatlar va dunyoning boshqa mamlakatlari bilan bo‘lgan iqtisodiy, madaniy va boshqa aloqalarni o‘rnatishga asosiy vazifa sifatida qaraydi. Yosh jihatdan kichik ya‘ni, mustaqilligiga ko‘p bo‘lmagan, rivojlanishni endi boshlagan va jahonning rivojlangan mamlakatlari orasida o‘z o‘rnini topishga intilayotgan davlatlar uchun eng dolzarb muammo bu albatta moliyaviy erkinligi hamda iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashdir. Endigina oyoqqa turayotgan davlat uchun moliyaviy ta‘minotni yo‘lga qo‘yish nihoyatda mushkul va hal etilishi zarur bo‘lgan masaladir. Bunday sharoitda katta mas‘uliyatni his etgan holda, tashqi iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish, jahon moliya tashkilotlariga a‘zo bo‘lish hamda nufuzli xalqaro kredit tashkilotlari bilan birgalikda ishlagan holda davlatning barpo etilishida mustahkam poydevor yaratish o‘ta muhim va ulkan siyosiy ahamiyatga egadir. Har bir mamlakat iqtisodiyotini qarzlar va kreditlar hisobiga rivojlantiradi, tashqi investorlarni, kredit muassalarini jalb qilib, ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantiradi. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy ko‘rsatkichlariga qarasa, hatto ularning ham tashqi qarzlari mamlakatda ishlab chiqarilayotgan YaIM hajmidan yuqori turadi. Mamlakatning ishlab chiqarish salohiyati, iqtisodiy rivojlanish darajalari, moddiy va ma‘naviy ishlab chiqarish sifatlari va hajmining o‘shishi, ishlab chiqarish infratuzilmasining taraqqiyoti ko‘p jihatdan xalqaro kredit munosabatlariga bog‘liq.

Shuningdek, xalqaro kredit munosabatlari jamiyatda moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalariga maqsadli va asoslangan investitsiyalar jalb etishni o'zida aks ettiradi. U yoki bu davlatning zamonaviy xalqaro kredit munosabatlari iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, qishloq xo'jaligini ko'tarish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, aholini ish bilan ta'minlash, fan va texnikani rivojlantirish va shuningdek, ekologik muammolarni hal etish bilan ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida yurtimizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri iqtisodiyot tizimini liberallashtirish, qulay investitsiya muhitini yaratish ekanligini aytib o'tgan edi.

Ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda respublikamizda tarif va pul-kredit sohasida ko'rilgan chora-tadbirlar inflatsiya darajasini asta-sekin pasaytirish imkonini berdi, makroiqtisodiy barqarorlik va izchil iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minladi. Shu bilan birga global moliya-iqtisodiy tizimidagi murakkab va tez o'zgaruvchan, shuningdek, valyuta munosabatlarini tartibga solishni liberallashtirish sharoitida makroiqtisodiy barqarorlik va aholining turmush darajasini oshirishni ta'minlashga qaratilgan monetar siyosatning amaldagi instrumentlarini tubdan qayta ko'rib chiqish talab etilmoqda.

Shuningdek, bu davrda yurtimizda yangi erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi, ularda investorlarga keng imtiyozlar yaratib berildi. Mamlakatimizda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik muvaffaqiyatli rivojlantirilmoqda, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan sheriklik aloqalari yangitdan tiklandi. O'zbekistonda islohotlarning hozirgi bosqichida xalqaro kredit munosabatlarining bosh maqsadi – iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini amalga oshirish uchun korxonalar va kompaniyalarning investitsion faolligini yanada kuchaytirish, iqtisodiyotni raqobatbardoshligini ta'minlash, markazlashmagan investitsiyalarni ko'paytirish, iqtisodiyotga ko'proq investitsiyalarni jalb qilishdir.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, xalqaro kredit munosabatlarida strategik investorlar ko'p miqdordagi mablag'larni birinchi navbatda iqtisodiyoti o'z ichki imkoniyatlari asosida barqaror va izchil ravishda rivojlanayotgan mamlakatlarga yo'naltiradi. Aynan shunday mamlakatlardagina qo'yilgan mablag'lar saqlanishiga va barqaror foyda olishga mo'ljal qilsa bo'ladi. Ichki va xorijiy investorlarni birinchi navbatda minimal darajadagi soliq imtiyozlari emas, balki biznesdagi keyingi qulay va maqbul istiqbollari qiziqtiradi. Qolaversa, ular eng avvalo mintaqalarning emas, balki mamlakatning xatarlilik darajasini hisobga oladi. Shunday ekan, investorlarni jalb qilish uchun mamlakat ularni foyda olish imkoniyatlari keng ekanligi ko'rsatib berishlari hamda mamlakat hududida bizneslarining rivojlanishi uchun barcha sharoitlarni yaratishlari davlatning ishlab chiqarish salmog'ini oshirib iqtisodiy barqarorligini oshirib beradi.

1. *O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2020*
2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5544-son 2018 yil 21 sentyabrdagi "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // Xalq so'zi. 22.09.2018 y.*
3. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-sonli Farmoni.*
4. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2018 yil – Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab –quvvatlash yili davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5308 sonli Farmoni.*
5. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 fevraldagi "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // Xalq so'zi, 2017 yil 18 fevral*
6. *Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash.- T.: Moliya, 2002.*
7. *Abdullayeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. Darslik.-T.: "IQTISOD MOLIYA", 2008.*
8. *Abdullayeva Sh.Z. Omonov A.A.Tijorat banklari kapitali va uni boshqarish –T.: "Iqtisod-Moliya", 2006 yil*
9. *Abdullayeva Sh.Z., Karimov F.Sh., Navro'zova K.N., Ortiqov U.D. Bank resurslari va ularni shakllantirish asoslari. O'quv qo'llanma. 1-kitob T.:TMI, 2004 yil.*
10. *Abdullayeva Sh.Z., Karimov F.Sh., Navro'zova K.N., Ortiqov U.D. Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarish. O'quv qo'llanma. 2-kitob T.: TMI, 2005 yil.*
11. *<http://www.lex.uz> - (O'zbekiston Respublikasi konun huzhzhatlari ma'lumotlari milliy bazasi).*
12. *<http://www.stat.uz> - (O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi rasmiy sayti).*
13. *<http://www.mineconomy.uz> - (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambagallikni qisqartirish vazirligi rasmi sayti).*
14. *<http://www.gov.uz> - (O'zbekiston Respublikasi sining xukumat portallari va rasmi saytlari).*
15. *<http://www.mininnovation.uz/> - (O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi rasmiy sayti).*
16. *<http://www.worldbank.org> - (Jahon Banki rasmi sayti).*